


## SIRDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel oylari)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 912,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,5 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 110,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,2 b.%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 802,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 77,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 %ga ko'paygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (366,4 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (150,2 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (82,0 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (67,6 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.


**Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)**



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`ngan yilning mos davriga nisbatan 2,2m % ga ko`paydi va 110,4 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,1 % ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 802,3 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 2,2 % ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,9 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi ulishi, (%)



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi 2015 yil yanvar-aprel oylari 88,3 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019 yilga kelib kichik tadbirkorlikning ulishi 87,9 % ni tashkil qildi.

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulishi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,4 %), Shirin sh (99,1 %), va Boyovut (97,8%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (24,2 %), Yangiyer shahri (6,3 %) va Mirzaobod tumanlari (5,2 %) kuzatildi.

### Chakana savdo aylanmasi va kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasidagi hajmi

	Chakana savdo aylanmasi (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	912,7	109,5	802,3	102,2
Guliston sh.	366,3	120,6	277,8	102,9
Shirin sh	13,5	101,3	13,4	102,4
Yangiyer sh	82,0	103,1	76,8	101,3
tumanlar:				
Boyovut	47,4	100,0	46,4	101,3
Guliston	35,1	104,9	33,9	102,5
Mirzaobod	67,6	106,1	64,0	102,6
Oqoltin	43,3	103,4	42,0	101,1
Sardoba	40,4	103,8	39,3	101,8
Sayxunobod	31,4	102,7	29,8	102,2
Sirdaryo	150,2	103,3	143,5	102,2
Xovos	35,5	101,2	35,3	101,5

**Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-aprel oylari (%)**



2019 yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1097,8 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,7 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-aprel oylarida o`tgan yilga nisbatan o`rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko`rsatkichlari Guliston shahri (4107,1 ming so`m), Yangiyer shahri (1923,8 ming so`m) va Sirdaryo tumanida (1192,9 ming so`m) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Boyovut tumani (372,4 ming.so`m), Xovos tumanida (378,7 ming.so`m) va Sayxunobod tumanida (413,2 ming so`m) qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1097,8</b>	<b>107,7</b>
Guliston sh.	4107,1	119,4
Shirin sh	730,9	101,3
Yangiyer sh	1923,8	100,9
tumanlar:		
Boyovut	372,4	98,1
Guliston	495,1	102,4
Mirzaobod	946,3	103,7
Oqoltin	849,5	101,8
Sardoba	622,8	101,9
Sayxunobod	413,2	100,9
Sirdaryo	1192,9	101,6
Xovos	378,7	99,5

Jumladan, 2019 yilning yanvar-aprel oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 %ni tashkil etib, 19,0 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


## SIRDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel oylari)

Yanvar-aprel oylari viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 412,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 4,4 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, 234,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,3 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 56,8 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer va Shirin shahrida (100,0 %) va Sirdaryo tumanida ( 88,1 %) yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019 yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko`ra, 178,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 43,1 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Sardoba tumanida (99,0 %), Boyovut tumanida (95,1 %) va Xovos tumanida (92,7 %) yuqori bo'lgan.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	412,8	104,4	178,1	106,0	234,7	103,3
Guliston sh.	130,8	83,4	20,9	41,5	109,9	103,1
Shirin sh	0,2	101,6	-	-	0,2	102,9
Yangiyer sh	7,1	103,0	-	-	7,1	103,0
tumanlar:						
Boyovut	37,7	129,6	35,9	131,3	1,8	103,4
Guliston	9,7	137,1	6,6	163,6	3,1	102,1
Mirzaobod	25,1	121,9	7,0	220,4	18,1	104,0
Oqoltin	8,3	148,2	6,8	164,3	1,5	102,1
Sardoba	37,8	105,8	37,4	105,9	0,4	103,2
Sayxunobod	56,0	146,4	43,9	166,4	12,1	102,0
Sirdaryo	90,4	105,0	10,7	116,7	79,7	103,6
Xovos	9,5	108,4	8,8	108,8	0,7	103,9



### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (31,7 %), Sirdaryo tumanida (21,9 %), Sayhunobod tumanida (13,6 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.:71-230-86-34